

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

XAMRAEVA RA’NO RAXMATILOEVNA

**HARBIYLARDA KECHADIGAN SURUNKALI QAYTALANUVCHI
PARODONTITLARNI DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI**

monografiya

Toshkent-2025

UDK: 616.314.18-002.4:355.09

BBK: 53.05

X18

Xamraeva R.R. Harbiylarda kechadigan surunkali qaytalanuvchi parodontitlarni davolash va profilaktikasi – Toshkent: Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 2025. – 97s.

Mualliflar:

Xamraeva R.R. – Toshkent Davlat Tibbiyot Univesiteti Yuz-jag‘ jarroxligi kafedrası assistenti, PhD.

Taqrizchilar

Sharipova G.I. – Buxoro davlat tibbiyot instituti 2-sonli Gigiena kafedrası mudiri DSc., dotsent .

Daminova Sh.B. - Toshkent Davlat Tibbiyot Univesiteti Stomatologik kasalliklar profilaktikasi kafedra mudiri t.f.n., professor.

Monografiya «Harbiylarda kechadigan surunkali qaytalanuvchi parodontitlarni davolash va profilaktikasi» Respublikamiz sharoitida yashovchi surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i to‘qimalarida yallig‘lanishlarni o‘rganish maqsadida katta masshtabli tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish, ular asosida birlamchi profilaktika tamoyillarini takomillashtirish maqsadida tibbiy statistika asoslari, randomizsiyalangan tadqiqot, reprezentativ guruhlar tuzish, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarining o‘zlashtirilishi shartligi belgilab qo‘yildi. Harbiy xizmatchilar orasida og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish-destruktiv kasalliklarini bartaraf etish borasida tadqiqotlarda integratsiyalashgan yondashuvni takomillashtirish, uzoq muddatli monitoringni samarali tashkil etish, davolash va profilaktika choralarining uzoq muddatli natijalarini baholash hamda shaxsiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilmoqda Surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud harbiylar uchun taklif qilingan dastur tashkil qilindi, ushbu klub faoliyati va yo‘nalishlarini tashkil etish tizimi ishlab chiqildi va u quyidagi qismlardan iborat qilib belgilandi: tashkiliy - uslubiy; madaniy - ma‘rifiy; davolash - profilaktik; psixologik; tibbiy - ijtimoiy; axborot ko‘magi.

© Xamraeva R.R., 2025

MUNDAPIJA

KIPISH.....	6
--------------------	----------

I BOB. CURUNKALI QAYTALANUVCHI PARADONTITLARNI DAVO- PROFILAKTİKASIGA QARATILGAN ZAMONAVIY QARASHLAR

§1.1 Surunkali qaytalanuvchi paradontitni tashxislash usullariga qaratilgan zamonaviy qarashlar.....	9
§1.2.Surunkali qaytalanuvchi parodontit etiopatogenezinig zamonaviy jihatlari...	12
§1.3.Harbiylarda stomatologik kasalliklarning oldini olishga qaratilgan zamonaviy qarashlar	14

II BOB. HARBIYLARDA KEChADIGAN SURUNKALI QAYTALANUVCHI PARODONTITLARNI KLINİK O‘ZIGA

XOSLIKLARI	24
§2.1 Klinik-stomatologik tekshirish o‘ziga xosliklari	24
§2.2 Parodontal to‘qimalarida periotestometriya tekshiruvlari	34
§2.3 Surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud harbiylarda gumoral immunitet ko‘pcatkichlapining xycyciyatlapi	35
§2.4 Surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud harbiylar gymopal immynitet papametplapiga tavgif	39

III BOB. HARBIYLARDA OG‘IZ BO‘ShLIG‘I TO‘QIMALARIDA YaLLIG‘LANISH JARAYoNINING KEChISHIDA DAVOLASH

USULLARINING SAMARADORLIGI	42
§3.1 Turli darajadagi surunkali qaytalanuvchi parodontit bilan og‘rigan harbiylarni kompleks davolash samaradorligini tahlil qilish.....	43
§3.2 Harbiylarda surunkali qaytalanuvchi parodontitni kompleks davolash samaradorligini tahlil qilish.....	43
§3.3 Harbiylarni davolashdan keyingi gumoral immunitet ko‘pcatkichlapi xycyciyatlapi	55
§3.4 Harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati to‘qimasi holatining yaxshilanishida tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy samaradorligi va erishilgan remissiya davomiyligi.....	60

IV BOB. SURUNKALI QAYTALANUVCHI PARODONTIT MAVJUD HARBIYLARDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I TO‘QIMALARIDA YALLIG‘LANISH JARAYONINING KECHISHIDA TIBBIY-IJTIMOIIY TEKSHIRISH USULLARINI BAHOLASH HAMDA ULARDA TIBBIY PROFILAKTIK CHORALARINI O‘TKAZISH.....	63
§4.1 Surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud harbiylar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasi	63
§4.2 Harbiylar uchun stomatologik yordamni tashkil etish prinsiplari	68
XOTIMA	76
XULOSA	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAP PO‘YXATI.....	84

SHARTLI QISQARTMALAR RO'YXATI

OBSHq	-	Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati
SQP	-	Surunkali qaytalanuvchi paradontit
JSST	-	Jaxon sog'likni saqlash tashkiloti
KPO	-	Karies, plomba, olingan tishlar
RMA	-	Papilyar-marginal alveolyar
GI	-	Gigiena indeksi
SGP	-	Surunkali generallashgan parodontit
TTI	-	Tish toshi indeksi
IFA	-	Immunoferment analiz
ShQ	-	Shilliq qavat
IL	-	Interleykin
Ig	-	Immunoglobulin
TSK	-	Tibbiy samaradorlik koeffitsenti

KIRISH

Jahon sog‘likni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra keyingi yillarda aholi orasida paradontitlar bilan kasallanish ko‘payib bormoqda, bu esa tibbiy-ijtimoiy, iqtisodiy muammolarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, bu patologiyaning harbiylarda rivojlanishi ularni tashhislash va davolashda murakkablik vujudga keltirishi bilan alohida o‘rin tutmoqda. Aniqlanishicha «...so‘nggi 20 yil davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari 42% gacha, turli kasalliklar bilan birga kelishi esa 80% gacha kuzatilishi...»¹ qayd etilgan. Shu bilan birga «...harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining ustunlik qilishi hamda 78,3% dan 95,3% gacha...»² kuzatilishi patologiyaning ko‘p tarqalganligidan guvohlik qiladi. Bu holat patologiya boshlang‘ich bosqichlarining aniq klinik belgilarsiz kechishi, ham klinik, ham laborator tekshiruvlarda o‘zgarishlar to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotlar olish imkoniyatining, mutaxassislar orasida yagona etiopatogenetik qarashlar yo‘qligi bilan izohlanadi. Keltirilgan asoslar ushbu tibbiy muammoning davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahon miqyosida harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklari, shu jumladan paradontitlarni davolashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda zamonaviy stomatologiyada og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari bilan bog‘liq virusli yallig‘lanish kasalliklari simptomlarining o‘ziga xos kechishi klinik-funksional xususiyatlarini aniqlash, kompleks davolash jarayonida stomatologik va fizioterapevtik choralar o‘rnini baholash, bemorlarning somatik holatini e’tiborga oluvchi kompleks bosqichma-bosqich yondashuv rejasini ishlab chiqish, harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarining ish faoliyati buzilishiga asoslangan davolash-profilaktika usullarini taklif etish; davolash samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqishni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

¹Абдухакимова М. Современные аспекты комплексного лечения рецидивирующего парадонтита // Актуальные проблемы стоматологии и челюстно-лицевой хирургии. Тошкент, 2021. – 72-73 с

²Шомуротова, Р. К., Сулаймонова, Г. Т., & Мухамедов, И. М. (2023). О роли иммуноферментного анализа в диагностике парадонтита. *«Микробиологиянинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани*, 96.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni jahon talablariga tenglashtirish borasida maqsadli va amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan harbiylarda paradontitlarni erta tashhislash, kompleks davolash samaradorligini takomillashtirish va profilaktikasining samarali yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish Strategiyasida ko‘rsatilgan 7 ta ustuvor yo‘nalishning 4-qismi 56-maqsadida «...aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlari potensialini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan dasturini amalga oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish...»³ kabi vazifalar belgilangan. Shu boradi harbiylarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklari hamda paradontitlarni davolashni takomillashtirish amaliyotini amalga oshirish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanishi ko‘rsatilgan.

Turli ilmiy manbalar tahlili ko‘rsatishicha, og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari aholi orasida tarqalishi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Ular o‘zining organizmga ko‘p qirrali ta’siri bilan barcha shifokorlarlar, jumladan stomatologlarga ham qiyinchilik tug‘diradi. Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari nafaqat Yevropa va Amerika qit’alari davlatlarida balki Osiyo mamlakatlarida ham keng tarqalgan (Rojinskaya L.Ya., 2017; Mulligan R., Sobel S., 2015).

Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari organizm turli tizim va a‘zolari, ular funksiyasi buzilishi, shuningdek parodont to‘qimasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turgan (Muxamedjanova L.R., 2015; Shtorina G.B. va hammual., 2015; Povoroznyuk V.V. va hammual., 2018), natijada ushbu sabab boshqa salbiy omillar bilan birgalikda tishlarning erta yo‘qotilishiga olib keladi.

Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari bilan zararlanganda bemorlar orasida o‘z vaqtida tashhis qo‘yish va davolash darajasi pastligicha qolmoqda. Bu tizimli diagnostika qilish mavjud usullarining har biri organizm to‘qimasining tuzilishi yoki funksiyasi ko‘rsatkichini aniqlashga qaratilgan. Shuni yodda tutish kerakki,

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60 Фармони.

klirik amaliyotda bemorlarni tekshirish nisbatan kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi.

Og'iz bo'shlig'i kasalliklarida epidemik jarayon aniq belgilangan davriylik, mavsumiylik, sikliklik mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, Og'iz bo'shlig'i kasalliklarining laboratoriya diagnostikasi bo'yicha mavjud moddiy-texnik ta'minot tadqiqot usullarini skrining qilishning nisbiy xarajatlari, barcha tadqiqot usullari uchun mos keladigan natijalarni elektron qayd etishning yagona vositalari yo'qligi sababli ushbu monitoringni tashkil etishga imkon bermagan.

I BOB. SURUNKALI QAYTALANUVCHI PARADONTITLARNI DAVO-PROFILAKTIKASIGA QARATILGAN ZAMONAVIY QARASHLAR (Adabiyotlar sharhi).

§1.1 Surunkali qaytalanuvchi parodontitni tashxislash usullariga qaratilgan zamonaviy qarashlar

So'ngi yillarda butun dunyo olimlari OBSHQ surunkali kasalliklarini diagnostikasi va ularni davolashga katta e'tibor qaratishmoqda. Stomatologiya rivojlanishining asosiy tendensiyalari bemorlarni kompleks davolashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning amaliy zaruriyatini ko'rsatadi [2; 8-11 b, 18; 15-20 b, 48; 47 b].

Samarali diagnostika stomatologiyada zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda muvaffaqiyatli davo uchun yutuqli bo'lishi mumkin. Aholiga zamonaviy stomatologik yordam ko'rsatish tizimi insonlar salomatligining munosib darajasini ta'minlashi mumkin [8; 50-53 b, 49; 91-97 b].

Defenzinlar – immun tizimning kation peptidlari, viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar munosabatida faol, mikroorganizmni surunkali qaytalanuvchi parodontitlar diagnostikasida aniqlanadigan infeksiyalardan himoyalashda yetakchi o'rinni egallaydi [92; 55-59 b, 17; 148-152 b].

Lazer doppler floumetriyasi usuli – lazer doppler floumetriyasi, kapillyar tizimda qon oqimining holatini obektiv ro'yxatga oladigan funksional usul hisoblanadi. lazer doppler floumetriyasi noinvaziv usul hisoblanadi, uning ustunligi ko'p axborot berishi, obektivligi hamda kerakli tadqiqot sohasida qon oqimi tebranishlarining holatini baholash imkonini berishi hisoblanadi [118; 130-135 b, 94; 262-267 b].

Spektral tahlilli lazer doppler floumetriyasidan foydalanish mikrogemodinamikaning turli o'zgarishlariga yuqori ta'sirchanlikka ega, mikrosirkulyator oqimni o'rganishning boshqa funksional usullari oldida ustunlikka ega, shu sababli real vaqt rejimida qon oqimining funksional mexanizmini baholash imkonini beradi [84; 49-52 b, 107; 36-47 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontitga ega bemorlarda klinik sur'at stomatologik holat o'zgarishlari, og'iz bo'shlig'ida gigiena indeksining ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashadi, ular surunkali qaytalanuvchi parodontitning og'irlik darajasiga bog'liq [80; 842-853 b]. Surunkali qaytalanuvchi parodontit rivojlanish vaqtida og'iz bo'shlig'ida gigiena buzilishlarining darajasi bu kasallikning klinik kechuvi, keyinchalik esa davo va prognoz sifatiga bevosita ta'sir qilishi isbotlangan [23; 74-81 b, 50; 44-47 b, 78; 82-88 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud bemorlarning og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida mahalliy himoya mexanizmining kamayishi, ayniqsa ushbu shaklining qandli diabet bilan birlashishida, bakteriologik tadqiqot o'tkazish vaqtida *Candida albicans* turdagi zamburug'lar ko'rsatkichlarining yuqori darajasi aniqlanadi, bu N- nitro-benzil-metilamin kanserogen birlashmasini ishlab chiqilishi hisobiga surunkali qaytalanuvchi parodontitning kechuvida salbiy omil hisoblanadi [53; 33-36 b, 24; 104-107 b].

Og'iz bo'shlig'i infeksiyadan himoyalovchi mahalliy immun mexanizmga ega, bundan tashqari organizmning a'zolari va to'qimalarini himoyalaydigan umumiy immunitetga ega. Mahalliy himoyaning samaradorligi to'liqligicha quyidagi omillarga bog'liq: og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining butunligi, limfoid tizim holati, shuningdek ba'zi kasalliklar va patologik holatlarga chegara holatlar hamda moyillik shakllantiruvchi limfoid to'qimalardagi o'zgarishlar, gumoral - IgA, IgM, IgG darajasi, laktoferin, boshqa himoya omillari [71; 105-107 b, 52; 57-68 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontitning autoimmun nazariyasi eng tasdiqlangan nazariya hisoblanadi, unda epidermisning bazal qatlamida sodir bo'ladigan sitotoksik reaksiyalarga muhim ahamiyat qaratiladi. Bu sohada Langergans hujayralarining yig'ilishi kuzatiladi, ular T-limfotsitlar uchun antigen-prezentatsiyalovchi hujayralar hisoblanadi. Keratinotsitlar bilan birga, shuningdek Langergans hujayralari antigenlar bilan kontaktga kirishganida T-limfotsitlar bilan interleykin-2 ishlab chiqilishini qo'zg'atuvchi interleykin-1 ni ko'p miqdorda hosil qiladi va o'ziga xos "interleykin kaskad" ishga tushadi: interleykin-4,-5,-6 va FNO

ishlab chiqilishi faollashadi [34; 20-23 b, 73; 32-35 b].

Shikastlanish o'choqlarida T-xelperlardan o'ziga xos infiltrat aniqlanadi, ular keratinotsitlarni buzishga qodir, bunda so'ngilari yallig'lantiruvchi sitokinlar hosil qilishga qodir. Genetik moyillik, shuningdek stress holatlari va ruhiy-hissiy yuklanishlar, dori vositalari, qator turli kimyoviy va fizik omillar surunkali qaytalanuvchi parodontitda immun noturg'unligini kuchaytirishi mumkin [21; 19-25 b, 35; 607-611 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontitda yallig'lanish jarayoni qo'zg'alishlarning salbiy omillarini neytrallashtiruvchi yallig'lantiruvchi va yallig'lanishga qarshi sitokinnarning nozik nazorat qilinadigan muvozanati hisoblanadi. Bu sitokinnarning sekresiyasi – ma'lum gennodeterminatsiyalangan retseptorlar bilan chaqiriladigan qisqa jarayon [7; 5-12 b, 22; 75-78 b]. Og'iz suyuqligida sitokinlar miqdori va qondagi darajasi o'rtasida korrelyatsiya mavjud emas, bu og'iz suyuqligida mahalliy immunitet rejimining avtonomligini yana bir bor namoyon qiladi [29; 61-63 b, 16; 319-325 b, 6; 46-53 b].

Yallig'lantiruvchi xarakterga ega sitokinlar sitokin javob mobilizatsiyasini chaqiradi (1,2,6,8 interleykinlar, $\text{FNO}\alpha$, interferon γ), yallig'lanishga qarshi sitokinlar yallig'lanish rivojlanishining oldini oladi (interleykinlar 4,10). Yallig'lantiruvchi va yallig'lanishga qarshi sitokinlar o'rtasida mavjud munosabat yallig'lanish jarayoni rivojlanishini nazorat qilishda muhim bo'g'in hisoblanadi, ham kasallikning kechishi, ham uning yakuni munosabatdagi muvozanatga bog'liq.

Sitokinlar tomirlar qon ivishining endoteliysida, xondrolitik fermentlarning hosil qilinishi, chandiqli to'qima hosil qilish kabi omillari ishlab chiqilishini nazorat qiladi. IL-1 interleykin limfotsit-faollashtiruvchi omil, shuningdek – leykotsitlarning endogen mediator hisoblanadi, ikki izoshaklda mavjud bo'lishi mumkin IL-1 α va IL-1 β [33; 71-76 b, 27; 23-32 b].

Shunday qilib, surunkali qaytalanuvchi parodontitni tashxislash uchun klinik, stomatologik, laborator (mikrobiologik, immunologik, biokimyoviy), funksional tadqiqot usullari o'tkazilishi lozim. Shu tufayli diagnostika va davolash

jarayonida deyarli 100% holatda uchraydigan, yondosh somatik patologiyaga bog'liq ravishda quyidagi ixtisoslikka ega shifokorlar ishtirok etishi zarur: terapevtlar, gastroenterologlar, nevropatologlar, immunologlar, kardiologlar va boshqalar.

§1.2 Surunkali qaytalanuvchi parodontit etiopatogenezing zamonaviy jihatlar

Surunkali qaytalanuvchi parodontit – ba'zi mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, surunkali qaytalanuvchi parodontit bilan aholining 0,5% dan 2,2% i zararlanadi. Surunkali qaytalanuvchi parodontit yomon sifatli o'zgarishlarining chastotasi 20 yil kuzatuv davrida 0,4% dan 3,3% gacha o'zgaradi [42; 115-118 b, 32; 103-110 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontit 17 – 35% ni tashkil qiladi, biroq, ko'pincha bu kasalliklar turli yoshdagi insonlarda kuzatiladi. Tekshirilgan barcha bemorlardan 60-75% ni ayollar tashkil qiladi, ya'ni ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq uchraydi [54; 118-128 b, 41; 19-22 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontitning rivojlanishi va tarqalishiga organizmda mavjud ichki a'zolarining kasalliklari sharoit yaratadi, agar ko'plab klinik shakllari, diagnostikaning qiyinligi, terapiyaning tayinlanishi murakkabligini e'tiborga olinsa, unda bu keltirilgan barcha omillar kasallikning ko'p omillikligini isbotlashi ayon bo'ladi [76; 22 b, 55; 35-40 b, 66; 27-30 b].

Hozirgi vaqtgacha, masalaning o'rganilganligiga qaramasdan, surunkali qaytalanuvchi parodontitning etiologiyasi va patogenezi aniq bo'lsada davolash keyin ham esa hanuzgacha qaytalanmoqda. Ochiq adabiyotlarda kasallik rivojlanishining patogenezi aks etuvchi turli nazariyalar muhokama qilinadi [89; 138-141 b, 77; 204-211 b].

Stomatologlarning amaliyotida ba'zi mualliflar herpes-viruslarning etiopatogenetik ahamiyatini ajratib ko'rsatishadi. Barcha viruslar (Epshteyn – Barr (EBV), oddiy herpes virusi (OGV), sitomegalovirus (SMV) va 7-tur herpes viruslari) OBShQ epiteliy hujayralariga yuqori tropizmga ega, uzoq persistensiya

bilan tavsiflanadi, immun yetishmovchiligi holatida reaktivlashadi, keyin viruslar immun javob tizimini zaiflashtirishga qodir bo‘ladi [2; 8-11 b, 18; 15-20 b, 88; 189-190 b].

Surunkali qaytalanuvchi parodontit etiologiyasi va patogenezining masalasi hozir ham, uning ko‘p tarqalganligi, o‘tkaziladigan terapiyaga turg‘unlik aniqlanishi, kasallikning rivojlanishiga olib keluvchi og‘ir bosqichlarini rivojlanishi, patologiya o‘chog‘iga zararlashi tufayli dolzarb hisoblanadi [51; 26-29 b, 74; 110-116 b, 85; 995-1000 b].

Zamonaviy tadqiqotlarning guvohlik qilishi bo‘yicha surunkali qaytalanuvchi parodontit rivojlanishining sababi qon aylanishining buzilishi, organizmda immun himoyaning pasayishi, stress holatlarning rivojlanishiga olib keluvchi oshqozon-ichak traktida surunkali kasalliklar, yurak-tomir tizimining kasalliklari, oshqozon osti bezining kasalliklari hisoblanadi. Ichakning disbakteriozi rezident mikrofloraning disbalansiga olib keladi, buning natijasida patogen mikroorganizmlarning antagonist faolligi shakllanadi, bu esa, o‘z navbatida, sekinlashgan giperta’sirchanlik turi bo‘yicha allergiya reaksiyalari rivojlanishiga sharoit yaratadi [46; 30-35 b, 57; 19-23 b, 47; 147-149 b].

Hozirgi vaqtda og‘iz bo‘shlig‘ida mikrobiotsenoz o‘zgarishlari, mahalliy himoya omillarining holatini, surunkali qaytalanuvchi parodontitda o‘tkaziladigan kompleks davolash natijasida bu o‘zgarishlarning dinamikasini baholash ko‘p o‘rganilgan muammo hisoblanadi. Shu bilan birga surunkali qaytalanuvchi parodontitda o‘tkaziladigan davolashning terapevtik usullariga bardoshliligi, remissiya davrlarining qisqaligi tufayli murakkab vazifa hisoblanadi [19; 84-87 b, 15; 28-32 b, 44; 67-72 b].

§1.3 Harbiylarda stomatologik kasalliklarning oldini olishga qaratilgan zamonaviy qarashlar

Davlat miqyosidagi dasturlar, uyushgan jamoalar yoki alohida shaxslar darajasida amalga oshirilgan stomatologik kasalliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘p yillik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday chora-tadbirlar yuqori samaraga ega. Bu

profilaktika faqat karies yoki parodont muammolarining kamayishiga emas, balki umumiy stomatologik kasalliklar rivojlanishining pasayishiga ham olib keladi. Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar orasida olib borilgan tadqiqotlar profilaktika samaradorligini tasdiqlab, og'iz bo'shlig'i tuzilmalari kasalliklarini bartaraf etishda turli yondashuvlarning muhimligini namoyon qildi [8; 50–53-b, 49; 91–97-b].

Hozirgi paytda turli ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yurituvchi xodimlar orasida kasbiy xavflar ta'sirida vujudga keladigan stomatologik muammolarga qarshi birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi. Bu choralar xodimning ish muhiti, staji va og'iz bo'shlig'i holatidan kelib chiqqan holda individual ravishda belgilanadi. Shuningdek, umumiy profilaktik choralar maxsus (spesifik) tadbirlardan farq qilgan holda shaxsiy profilaktikaga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida neft va gaz sanoatining idoraviy muassasalarida ko'rsatiladigan Ayrim aholi guruhlari orasida stomatologik yordam ko'rsatish jarayonida yuqori natijalar qayd etilgan bo'lsa-da, boshqa toifadagi fuqarolar orasida asosiy urg'u radikal usullarga — xususan, tishlarni olib tashlashga qaratilishi kuzatilmoqda. Bunday holatlarda profilaktika va shaxsiy gigienaga oid motivatsiya deyarli mavjud emasligi, hamda sanitariyalashtirilganlar ulushining uch baravarga qisqargani aniqlangan.

Turli yoshdagi aholi qatlamlari o'rtasida kariesning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarning joriy etilishi natijasida og'iz bo'shlig'i va parodont to'qimalarining gigienik holatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Bundan tashqari, stomatologga murojaat qilish davrlari orasidagi vaqt uzaygan, shuningdek, 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida dastlabki emal shikastlanish o'choqlari soni 62,5 foizga kamaygani aniqlangan.

Muallif tomonidan qayd etilgan fikrlarga ko'ra, bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar, shuningdek muayyan kasbiy faoliyat turlarida band bo'lgan shaxslar

uchun individual profilaktik yondashuvlar samaradorligini ta'minlash maqsadida kompleks yondashuv talab etiladi. Bu tizim tashkiliy, klinik-dagnostik hamda terapevtik-profilaktik tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir patsientning yosh xususiyatlari va umumiy salomatlik holatidan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim.

gigienasi yetarli emasligi fonida kasbiy gigiena yo'qligida, ham intakt parodontda, ham gingivit holatida gigienik ko'rsatkichlarni yiliga o'rtacha 12,9% ga yomonlashishini ko'rsatgan. Boshlang'ich gingivitda parodontal ko'rsatkichlar ushbu darajada yomonlashadi va dastlabki intakt parodontda ular me'yoriy qiymat chegaralaridan chiqadi. Muallif fikricha, yiliga ikki marta professional gigienani amalga oshirilishi gigienik ko'rsatkichlarni o'rtacha 21,2% ga yaxshilaydi va gingivitda parodontal ko'rsatkichlarni mutanosib ravishda yaxshilaydi; boshlang'ich intakt parodontda me'yoriy parodontal ko'rsatkichlar saqlanib qoladi. Yiliga uch marta professional gigiena gingivit bilan og'rigan bemorlarda gigienik holatni va parodontal kasalliklarni eng yuqori: boshlang'ich darajaga nisbatan o'rtacha 34,6% ga darajada yaxshilaydi. Kasbiy gigienaning yetarli emasligi klinik jihatdan sog'lom parodontli tekshirilganlarning 56,3% va 25,0% da mahalliy va umumiy gingivitni keltirib chiqargan va 50,0% holatda dastlab gingivitning mavjudligi uning parodontitga o'tishiga ko'maklashgan. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, gingivit borligida ikki tomonlama professional gigienaning tibbiy samaradorligi 17,4% ni tashkil qilgan; uch karra professional gigiena tibbiy samaradorlikni 60,2% gacha oshirgan. Muallifning ta'kidlashicha, og'iz bo'shlig'i gigienasi bo'yicha individual suhbat gigiena sifatini yaxshilash uchun yetarli darajada samarali emas: og'iz bo'shlig'i gigienasining hajmi va usullari kuzatilgan yil davomida kam o'zgargan, ammo yiliga 2 marta professional gigiena tarafdorlari soni 29,2% ga ko'paygan.

Vrach-parodontologlar tomonidan maxsus tanlangan tish cho'tkasi, tish pastasi, tishlararo yorshiklar, floss va monotutamli tish cho'tkasidan iborat "Shaxsiy gigiena to'plami"ni taklif qilgan. U 6 oydan keyin 100%, yengil

periodontit bilan ogʻrigan bemorlarning 85,2% va oʻrtacha ogʻirlikdagi 81,5% kataral umumiy gingivitning takrorlanishining oldini olishni taʼminlagan, 12 oydan keyin bu samara biroz kamaygan [118; 130-135 b, 94; 262-267 b].

Xizmat ishchilari orasida tish kariesining oldini olish dasturini asosida sanitariya - targʻibot ishlaridan tashqari, kompleks profilaktika dasturiga bir yil davomida kalsiyga boy, polivitaminlar va multimineral kompleksini qabul qilishni kiritgan. Leus P.A. [52; 196-199-b.] Belarus Respublikasida ommaviy darajada tish kariesi va periodont kasalliklarining samarali birlamchi profilaktikasini imkoniyatini baholagan. Ushbu profilaktika dasturlari kasalliklar etiologiyasi boʻyicha mavjud umumeʼtirof etilgan bilimlarga asoslanishi va vaziyatni tahlil qilish, uzoq muddatli oʻlchanadigan maqsadlar va rejalashtirilgan tadbirlarning tibbiy samaradorligini baholash tizimi kabi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga olishi kerakligi taʼkidlangan.

Parodont kasalliklarining oldini olish, jumladan, professional ogʻiz gigienasi, shaxsiy gigiena vositalarini tanlash, gigiena choralariga oʻrgatish, periodontitni mahalliy tibbiy va jarrohlik davolash boʻyicha kompleksli profilaktikani amalga oshirgan. Muallif bir yildan soʻng parodont kasalliklarining oldini olishning klinik samaradorligini koʻrsata oldi: parodont kasalliklarining tarqalishi 20,4% ga kamaygan, CPI boʻyicha parodont kasalliklarining intensivligi 1,8 marta kamaygan, ogʻiz boʻshligʻi gigienasi indeksi – OHI-S 1,8 marta yaxshilangan. Parodont kasalliklarining profilaktikasi ayniqsa 45 yoshgacha samarali boʻlgan [70; 54-56 b, 110; 158-163 b, 136; 71-74 b].

Karies va parodont kasalliklarining profilaktikasida ushbu chora-tadbirlarning samaradorligi aniqlangan. Parodont toʻqimalari va OBShQ kasalliklarini tashxislash, davolash va oldini olish algoritmlarini amalga oshirishning yuqori klinik samaradorligi aniqlangan, bu verrukoz va eroziv leykoplakiya bilan kasallangan bemorlarning 21,9%ga koʻpayishi va parodont toʻqimasida jarayonning 18,6% ga barqarorlashuvida namoyon boʻlgan. Barcha komponentlarda OHIP-49-RU indeksiga koʻra hayot sifatining sezilarli yaxshilanishi aniqlangan [45; 37-44 b, 61; 25-29 b, 69; 156-160 b].

Mualliflar sanoat xavf omillari ta'sirida faoliyat olib boruvchi guruhda ko'rsatiladigan profilaktik yordam darajasini aniqlash uchun metallurgiya sanoati xodimlari o'rtasida og'iz bo'shlig'ining gigienik holatini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar. Xavf omillarining mavjudligiga ko'ra, patsientga umumiy profilaktika choralarini, yallig'lanishli parodont kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan omillarning ta'sirini yumshatish vositalarini va usullarini amalga oshirish tavsiya etilgan. Ijtimoiy va gigienik omillarni hisobga olgan holda metallurgiya ishlab chiqarishi ishchilari o'rtasida profilaktik yordam darajasi aniqlangan va stomatologik status baholangan. Metallurgiya ishlab chiqarishi xodimlarining og'iz bo'shlig'i salomatligini optimallashtirish maqsadida kasbiy xavf omillarini hisobga olgan holda stomatologik kasalliklarining oldini olish bo'yicha adaptiv dasturlarni shakllantirish zarurligi uqtirilgan [79; 123-125 b, 91; 71-76 b, 26; 61-72 b].

Jami 40 nafar 19-30 yoshdagi bemorda mikrobiologik va klinik tadqiqotlar o'tkazilgan, barcha bemorlar JSST tomonidan tavsiya etilgan klinik va indeksli tadqiqotlarning yagona sxemasi bo'yicha tekshirilgan. Lacalut Active Herbal tish pastasi ajratilgan mikroorganizmlarga qarshi yuqori faollikka yega bo'lgan. Terapevtik va profilaktika vositalarini qo'llashdan 2 hafta o'tgach, gigiena ko'rsatkichi 2,5 baravar yaxshilangan. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha bemorlarda o'rtacha og'irlikdagi surunkali kataral gingivit bor bo'lgan. Yallig'lanishga qarshi ta'sir faolligidagi farq 2 haftadan so'ng o'zini namoyon qilgan, Lacalut Active Herbal tish pastasi ta'sirida PMA indeksi 13% ga kamaygan va «gingivitning yengil darajasi» maydoniga o'tgan [28; 17-20 b, 10; 82-86 b].

Mualliflar professional kontaktning birinchi kunlaridan boshlab kadmiyning tishning qattiq to'qimalari va parodontga salbiy ta'sirini oldini olish bo'yicha bir qator profilaktika choralarini, shuningdek kadmiy lyuminoforlarini ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi ishchilar va muhandis xodimlarining mehnat sharoitlari va sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan umumiy gigiena choralarini taklif qilishgan. Ushbu ishlab chiqarishda mazkur profilaktika choralarining yuqori samaradorligi isbotlangan [5; 45-48 b, 87; 71-76 b, 75; 36-43 b].

Makeeva I.M. va hammual. [90; 1422-1426 b, 62; 127-131 b] o'z tadqiqotlarida stomatologik status, og'iz bo'shlig'ining to'g'ri amalga oshirilgan gigienasi, gigienik stomatologik tadbirlarni amalga oshirish uchun vositalar va usullarni tanlash og'iz bo'shlig'i kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlashgan. Mualliflar turli kurslar talabalarining gigienik holatini baholaganlar va og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish bo'yicha bilimlarni olish uchun foydalanadigan manbalarini aniqlaganlar. Og'iz bo'shlig'i gigienasi va stomatologik kasalliklarning oldini olish tamoyillari haqidagi asosiy bilimlar turli ixtisoslikdagi shifokorlar uchun zarurdir, chunki ko'pincha stomatologik kasalliklar va tananing boshqa a'zolari va tizimlarining kasalliklari o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Shu bilan birga Mustafiev M.Sh., Kardanes L.Yu. [4; 54-53 b, 31; 101-107 b] stomatologik kasalliklar uchun xavf omillarini har tomonlama baholashni amalga oshirgan, RF Kabardino-Balkar Respublikasidagi odamlarning ijtimoiy-gigienik xususiyatlarini va stomatologik faolligini anketa tahlili ma'lumotlari va harbiy yoshdagi shaxslarning tibbiy stomatologik muassasalarning ish sifati haqidagi fikrlari asosida o'rgangan. Tadqiqot shuni ko'rsatganki, harbiy yoshdagi ko'pchilik yigitlarda sanitariya savodxonligining pastligi, o'zining stomatologik salomatligiga yetarlicha e'tibor bermaslik, tish kasalliklarining oldini olish va og'iz bo'shlig'i gigienasiga ishtiyoqsizlik kuzatilgan.

Orudjev A.V. [36; 222-225 b, 58; 32-35 b] parodontning yallig'lanish kasalliklarini kompleks davolashda apipreparatlardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazgan. Tajriba uchun 2,5-3,0 kg vaznli 48 ta quyon tanlab olingan. Parametrlarning o'rtacha chegaralari va shu bilan birga shartli nazorat guruhi bilan ikkala guruhning nisbatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatganki, davolashning klassik usuli (xlorgeksidin) bilan, «Tridoniumom» bilan solishtirganda, yallig'lanish belgilari tezroq yo'qolgan, an'anaviy usul bilan davolash paytida hujayraviy tuzilmalarni tiklash jarayonida fibroz-kollagenli proliferatsiya aniqlangan, bu o'z navbatida qo'poltolali chandiqli to'qimalarining shakllanishini anglatgan. «Tridonium» apipreparati parodont to'qimalarida

patologik o'choqqa davolashning klassik usuli bilan bir xil ta'sir ko'rsatgan, ammo biroz kamroq darajada bo'lib, kollagen proliferatsiyasining sababi bo'lgan, an'anaviy dorilardan sekin yallig'lanishga qarshi ta'siri bilan ajralib turganligi statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan.

Glazunov O.A. [93; 154-159 b, 60; 61-62 b] tadqiqotining maqsadi konchilar orasida stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha o'zi ishlab chiqqan kompleksni baholash bo'lgan. Hayvonlar ustida o'tkazilgan tajribada kompleks hayvonlarning og'iz suyuqligi, qon zardobi va suyak to'qimalarida biokimyoviy ko'rsatkichlarni normallashtirishga yordam bergan. Konchilarda stomatologik statusning yaxshilanishiga, og'iz suyuqligining rN qiymatining o'zgarishi diapazonining pasayishiga olib kelgan va lunj epiteliy hujayralarining zaryadlanish holatini me'yorlashtirgan. Terapevtik va profilaktika majmuasini qo'llash uchun ishlab chiqilgan sxema, jumladan «Biotrit S» adaptogeni, «Letsetin D3» membrana stabilizatori, «Alfavit» vitaminlar va mikroelementlar majmuasi hamda «Lizodent» eliksiri, remineralizatsiyalovchi va yallig'lanishga qarshi tish pastalari, stomatologik davolash samaradorligini oshirgan va residivlarni kamaytirish imkonini bergan.

Mualliflar tomonidan idoraviy sanatoriylarda va sanator davolanishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida xavfli mehnat sharoitlari bo'lgan ishchilarni stomatologik parvarishlash reglamentini ishlab chiqqan. Stomatologik statusni va har xil turdagi stomatologik davolanish ehtiyojii baholash uchun sanatoriyda davolanayotgan 402 nafar xavfli mehnat sharoitlari bo'lgan erkak ishchilar o'rtasida so'rov o'tkazilgan. So'rov natijalariga ko'ra, zararli mehnat sharoitlari bo'lgan ishchilarda bir xodimga nisbatan stomatologik davolanishga bo'lgan ehtiyoj hisoblab chiqilgan. O'tkazilgan hisob-kitoblar «Zararli mehnat sharoitlari bo'lgan ishchilarni rehabilitatsiya qilishning sanator-kurort bosqichida stomatologik yordam ko'rsatish reglamenti» algoritmini ishlab chiqishni asoslagan [59; 69-72 b, 39; 131-135 b].

Yusupov Z.Ya. va hammual. [13; 217-220 b, 1; 72-75 b, 38; 7-10 b], stomatologik patologiyaning oldini olish dasturlari og'iz bo'shlig'ida patogen

holatni tashkil etuvchi xavf omillarini aniqlashga va differentsiatsiyalangan profilaktikaning kompleks choralarini tayyorlashga asoslangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalari ishchilarining stomatologik statusi og'iz bo'shlig'ining shaxsiy gigienasiga e'tiborsizlik, past sanitariya madaniyati va stomatologik kasalliklarning oldini olish va og'iz bo'shlig'i gigienasiga motivatsiyaning yo'qligi bilan tavsiflangan. Mualliflar sanoat-ishlab chiqarish korxonalari ishchilari o'rtasida sanitar-ma'rifiy ishlarni olib borish, shaxsiy va kasbiy og'iz bo'shlig'i gigienasi bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish kerakligini ko'rsatgan. Ko'pgina tadqiqotlar natijalarini o'rganish sanoat-ishlab chiqarish korxonalarida ishchilarga stomatologik yordam ko'rsatishni yaxshilash zarurligiga guvohlik bergan [64; 5-9 b, 9; 36-41 b, 81; 34-39 b].

Mualliflar xavfli ishlab chiqarishlarda va o'ta xavfli mehnat sharoitida ishlaydigan ishchilarga stomatologik yordam ko'rsatish masalalarini ko'rib chiqqanlar. Ular zararli ishlab chiqarish omillari ta'siriga duchor bo'lgan va o'ta xavfli mehnat sharoitlari bo'lgan ishchilar uchun stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha kompleks dasturda stomatologik parvarish va stomatologik ta'lim birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblashgan, bundan tashqari, umumiy profilaktika tadbirlari - umum zavod va umum sex yoshi va ish stajiga ko'ra individual tadbirlar. Kasbiy xavf omillari tufayli ishchilar o'rtasida tish kariesining keng tarqalganligi sababli, bunday ishchilarga stomatologik yordamni tashkil etishning asosiy usuli monitoring va dispanserizatsiya bo'lishi kerak. Monitoring va klinik tekshiruvning asosi yuqorida ko'rsatilgan profilaktika chora-tadbirlarini keng ishlab chiqish bilan ishchilarning og'iz bo'shlig'ining rejalashtirilgan sanitariyasini tashkil etish bo'lishi kerak [40; 12-18 b, 37; 514-515 b, 11; 10-15 b].

Berezin V.A. va hammual. [14; 38-42 b, 30; 57-60 b] sanoat komplekslarida ishlaydigan shaxslarga dispanser stomatologik yordamni tashkil etish zaruratini ko'rsatuvchi ilmiy adabiyotlarning retrospektiv sharhini taqdim etgan. Korxonalarda ishchi va xizmatchilarga o'z vaqtida stomatologik yordam ko'rsatish asosiy stomatologik kasalliklarning oldini olishning muhim sharti va yetakchi

usullaridan biri ekanligi isbotlangan. Mualliflarning ta'kidlashicha, profilaktika dasturlari og'iz bo'shlig'ida patogen holatning shakllanishiga ta'sir qiluvchi xavf omillarini aniqlashga va individual terapevtik va profilaktika chora-tadbirlar kompleksini tayyorlashga asoslangan bo'lishi kerak [82; 10-16 b, 67; 187-192 b].

Xavf omillarining mavjudligiga ko'ra, ular bilan kontaktda bo'lgan shaxslarga umumiy davolash-profilaktika choralarini amalga oshirish yoki ularning ta'sirini yengillashtiradigan vositalar va usullarni buyurish tavsiya etiladi, buning natijasida asosiy stomatologik kasalliklarning turli xil nozologik shakllari rivojlanishiga moyillik shakllanadi. Ko'pgina tadqiqotlar natijalarini o'rganish davolash-profilaktika komplekslaridan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi, qaysiki ular korxona ishchilarining stomatologik statusini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko'plab sanoat korxonalarida ham shunga o'xshash tadqiqotlar o'tkazilgan, ayniqsa stomatologiya sohasi tadqiqotchilarining bajargan ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada.

Shunday qilib, xorijiy va vatandosh tadqiqotchilarning oxirgi yillar ilmiy manbalari tahlili shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish bilan bog'liq korxonalar ish joylarida ishchilar organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lib, ular organizmga turlicha ta'sir etadi. Boshqa a'zo va to'qimalar qatori og'iz bo'shlig'iga salbiy ta'siri ham yaqqol namoyon bo'lishi, stomatologik kasalliklar soni ko'payishi ko'rsatib berilgan. Ushbu kasalliklarni kamaytirish, ishchilar salomatligini muhofaza qilish, ularning ish unumdorligini yuqori sur'atda saqlash maqsadida profilaktik tadbirlar o'tkazish muhimligi ta'kidlangan. Turli ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayondan kelib chiqqan holda ko'plab profilaktik tadbirlar ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bo'yicha ilmiy ishlar yetarli. Ammo, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan kimyoviy birikmalarning parodont, OBShQ ga ta'sir mexanizmi, sabab-oqibatli bog'liqlar va stomatologik kasalliklar shakllanishi va rivojlanishida kimyoviy birikmalar o'rniga bag'ishlangan patogenetik jihatlardagi ishlar kam.

Shu o'rinda ishlovchilar uchun bu kimyoviy birikmalarning ta'siri, keltirib

chiqaradigan oqibatlari, uzoq muddatli natijalari o'rganilmagan. Shu sababli texnologik jarayonida kimyoviy birikmalar ishlatiladigan kimyo korxonalari texnologik jarayonlari, ular bilan bog'lik mehnat sharoitlari, ish o'rinlarini gigienik baholash, ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar orasida stomatologik kasalliklar bilan kasallanish darajasini yillar bo'yicha dinamikada yoshga hamda shu korxonadagi ish stajiga bog'liq holda o'rganish muhim. Shuningdek, ishchi-xodimlar, asosan reproduktiv yoshdagi ayollar og'iz bo'shlig'i holatini baholash, parodont kasalliklariga olib keluvchi xavf omillarini aniqlash, ularga bog'liq holda parodont to'qimasidagi patologik xolatlar shakllanish va rivojlanish mexanizmlari, ushbu kasalliklarni davolash va profilaktikasiga yangicha yondashish zarurati tug'ilgan va o'z yechimini kutmokda. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan kimyoviy birikmalarning parodont to'qimasiga ta'sir mexanizmi, sabab-oqibatli bog'liqlar va parodont kasalliklarining shakllanishi va rivojlanishida kimyoviy birikmalar o'rniga bag'ishlangan patogenetik aspektidagi ishlar juda kam. Bizning Respublikamiz sharoitida esa loyihada esa yechilishi rejalashtirilayotgan ilmiy-texnik masala bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar qilinmagan.

II BOB. HARBIYLARDA KEChADIGAN SURUNKALI QAYTALANUVChI PARODONTITLARNI KLINIK O'ZIGA XOSLIKlARI

§2.1 Klinik-stomatologik tekshirish o'ziga xosliklari

Tadqiqot davrida harbiylar, 2 ta katta guruhga bo'linib asosiy guruh surunkali qaytalanuvchi parodontit mavjud va nazorat guruhda og'iz bo'shlig'i kasalliklari mavjud bo'lmagan harbiylardan tashkil topdi.

Bemorlarni tekshirish ularning umumiy holatini, terining rangini, mahalliy limfa tugunlarini palpatsiya qilishdan boshlandi. Tish holatini baholash uchun og'iz bo'shlig'ining tekshiruvi o'tkazildi.

Biz lablar, lunjlar, tilning shilliq qavatining holatini, tish izlari yoki tishlash izlari mavjudligini, til va lab yuganchalarining holatini, og‘iz bo‘shlig‘i dahliz qismining chuqurligini o‘rgandik, milk chetining holatini aniqladik (rangi, shakli, shish borligi, oqma yo‘llari), minerallashgan va minerallashmagan, milk usti va milk osti toshlarning mavjudligini aniqladi, parodontal cho‘ntaklarning mavjudligi va chuqurligini, ekssudatsiya mavjudligini aniqladi.

Stomatologik bemorning kartochkasida tish formulasi qayd etilgan bo‘lib, unda karies va nokarioz shikastlanishlar, plombalarning mavjudligi, ortopedik tuzilmalar va olingan tishlar qayd etildi.

Stomatologik ko‘ruv davomida tadqiqot guruhidagi harbiylarda stomatologik kasalliklar tarqalishi o‘rganildi (3.1-jadval) (3.1- rasm).

2.1 – jadval

Asosiy stomatologik kasalliklarning tarqalishi

Stomatologik kasallik-lar	Asosiy guruh n=325		Nazorat guruh n=150		Ishonchlilik darajasi
	Mut son	%	Mut son	%	
Karies va uning asoratlari					
Tish kariesi	98	65,3%	12	40,0%	R<0,05
Pulpit	27	18,0%	7	23,3%	R<0,05
Periodontit	25	16,7%	11	36,7%	R<0,05
Tishlarning nokarioz kasalliklari					
Emal eroziyasi	6	41%	-	37%	R<0,01
Ponasimon nukson	4	52%	2	54%	R<0,05
Gipersteziya	11	48%	3	40%	R<0,05
Patologik yedirilish	9	59%	-	60%	R<0,05
Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklari					
Glossalgiya	2	1,3	-	-	R<0,05
Xeylit	-	-	-	-	R<0,01
Leykoplakiya	1	0,6	-	-	R<0,05

Kandidoz	2	1,3	1	3,3	$R < 0,05$
Stomatit	-	-	-	-	$R < 0,05$


Izoh: Guruhlar o'rtasida farqlar ishonchliligi ($r > 0,05$)



2.1-rasm. Bemor S.N., 32 yosh. (Asosiy guruh)

Tekshirish natijalari davomida stomatologik kasalliklardan gipersteziya, patologik yedirilish, ponasimon nuqson asosiy guruhda uchradi. Asosiy kasallik fonidagi harbiylarda bu ko'rsatkichlar nazorat guruh bemorlariga nisbatan 1.4 marta oshganini ko'rdik. Bunda patologik yedirilish 4 nafar bemorda, ponasimon nuqson 9 nafar bemorda va gipersteziya 11 nafar bemorda kuzatildi. Kandidoz va glossalgiya kasalligi asosiy guruh bemorlarga nisbatan ko'p uchradi.

